# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№11




ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2025

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 547 sahifa.*
*2025-yil, noyabr*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

YASHIL TRANSPORT SIYOSATINING BARQAROR RIVOJLANISH VA TARMOQLARARO INTEGRATSIYADAGI O‘RNI ....... 21
**Rahmonov Rasul Ne’matovich**

BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ....... 34
**Safarov Sanjar Ravshan o‘g‘li**

O‘ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI....... 38
**Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi**

HUDUDIY XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELI ....... 43
**Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna**

DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI....... 50
**A.A. Ismailov**

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO‘NALISHLARI ....... 56
**Mansurov Mansur Alisherovich**

ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI....... 61
**Aliqulov Aziz Haydarjonovich**

XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O‘ZBEKISTON KORXONALARIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI....... 66
**Yormamatov Qodirjon Juraqulovich**

RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA’SIRI ....... 71
**Yaxshiyev Shahzod Sherali o‘g‘li**

OLIY TA’LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO‘YICHA XORIJ TAJRIBALARI ....... 78
**Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich**

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ....... 84
**Aripov Abdulaziz Sakijonovich**

YASHIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH....... 89
**Bobokulova Muhabbat Mahammadiyeva**

ELEKTRON TO‘LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI ....... 93
**To‘lqinov Dilshodxo‘ja Olim o‘g‘li**

MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI ....... 98
**Yusubov In’omjon Ikram o‘g‘li**

SOLIQ SIYOSATINI RAQAMLI BOSHQARISH ORQALI BUDJET DAROMADLARINI BARQARORLASHTIRISH STRATEGIYASI....... 103
**Xodjimatov Xamidullo Mamirjonovich**

OZIQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH ....... 108
**Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi**

FARMASEVTIKA SANOATIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH ....... 113
**Yaqubov Timurbek G‘anibekovich**

SHAXSNI OVOZI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH VA AUTENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI....... 123
**Ozoda Sabirova Shermaxamatovna**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

YASHIL IQTISODIYOT — BARQAROR RIVOJLANISH GENERATORI ........ 129
**Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna**

CHET EL MEHMONXONA TARMOQLARINING BRENDING STRATEGIYALARINI O‘RGANISH ........ 133
**Ergashev Oybek Mamarasul o‘g‘li**

MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 144
**Arzikulov Otabek Ali o‘g‘li**

TRANSPORT TIZIMI SOHASI KORXONALARININING INNOVATSION SALOHIYATINI BAHOLASH YO‘NALISHLARI ........ 152
**Ismailov Akmal Maxsudovich, Abilqosimova Shaxlo Sodiq qizi**

MEHMONXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XODIMLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI ........ 158
**Abduxamidov Sarvar Adxamovich, Normurodov Tal’at Normurod o‘g‘li**

KORXONALARDA HR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI ........ 163
**Aminova Shaxnoza Aziz qizi**

JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAFSIZLIK RO‘LI ........ 168
**Abdusamatov Barkamol Rustamjon o‘g‘li**

ТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ КАРАКАЛПАКСТАНА И СУЩЕСТВУЮЩАЯ ИНФРАСТРУКТУРА ........ 174
**Хошимова Камилла Навфал қизи**

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARI: REKREATSION TURIZM SOHASIDA QO‘LLASH TAJRIBASI VA ISTIQBOLLARI ........ 184
**Najmitdinov G‘ayratbek Sharifovich**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIRTUAL TA’LIM PLATFORMALARI: TEXNIK VA PEDAGOGIK TALABLAR, TIZIMLI TAHLIL VA IQTISODIY JIHATLAR ........ 189
**Turayeva Adiba Ikramovna**

ICHKI AUDIT TIZIMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ........ 193
**Nuridinova Barchinoy Xusniddin qizi**

MINTAQA IQTISODIYOTIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI ........ 199
**Xaitbaev Jasurbek Otaxanovich**

MINTAQANING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI ........ 204
**Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi**

SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 210
**Jobborov Anvar Egamberdiyevich**

ISLOMIY MOLIYALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKTNING DOLZARBLIGI ........ 217
**Nazarov Nodirjon Namoz o‘g‘li**

JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MASALALARI ........ 222
**Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich**

ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN ........ 225
**Abdukhalikova Komila Abdukhalikovna**

BANKLARDA BARQARORLIKNI TA’MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH ........ 229
**Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi**

PAXTA-TO‘QIMACHILIK SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISH YO‘NALISHLARI: TAHLIL VA TAKLIFLAR ........ 233
**Abdullayev Hamidulla Abdug‘ani o‘g‘li**

WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS ........ 238
**Abdullaev Erkinjon Azamovich**

YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA YASHIL MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI ........ 245
**Xalikov S. X.**

QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORIDA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH ....245
**Xudayberganov Jasur Baxodirovich**

WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS ....251
**Abdullaev Erkinjon Azamovich**

NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISH JARAYONINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI....257
**Allakuliyev Akmal Baltayevich**

SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ....261
**Jobborov Anvar Egamberdiyevich**

TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RESURSLARNI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH....268
**Avulchayeva Feruza Jurakuziyevna**

BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH....272
**Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi**

ZAMONAVIY ISH JOYLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLARNING ROLI ....276
**Tulyaganova Aziza**

ISLOMIY MOLIYALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNING DOLZARBLIGI....281
**Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li**

TURIZM MARKETINGINING NAZARIY ASOSLARI, ZAMONAVIY YO'NALISHLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI....286
**Xamidov Otabek Bakidjanovich**

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TIZIMINI STATISTIK BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI ....290
**Arzikulov Otabek Ali o'g'li**

ЭКОЛОГАМ ПОЧЕТ И УВАЖЕНИЕ ....298
**Максудова Шахиста**

DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNING MOHIYATI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENTSIYALARI ....304
**Jo'raev Farruxbek Muxiddin o'g'li**

O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIYALASHTIRISH XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI....307
**Inomjonov Islomjon Ilxomjon o'g'li**

ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN ....311
**Abdukhalikova Komila Abdukhalikovna**

МОБИЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ....315
**Хурамова Фарангиз Учкун кизи**

ЦИФРОВИЗАЦИЯ НАЛОГОВ И АКЦИЗНАЯ РЕФОРМА УЗБЕКИСТАНА В ВТО ....319
**Дамир Рустамович Абдулов**

BANK TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR SHAROITIDA LIKVIDLILIK RISKINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI....324
**Alimov Baxtiyor Murodovich**

BANK AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI ....335
**Narziyev Xayotjon Azamatovich**

O'ZBEKISTON SUG'URTA SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH MASALALARI....343
**Abdimuminova Saodat Taxirjonovna**

TO'QIMACHILIK SANOAT MAXSULOTLARI EKSPORT FAOLIYATI TAHLILI VA BRENDDA LIDERLIK TUSHINCHALARI ....352
**Abdulazizova Xushnoza Nayabovna**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МОДЕЛИ УПРАВЛЕНИЯ ОТХОДАМИ НА ОСНОВЕ ОПЫТА РАЗВИТЫХ СТРАН И ВОЗМОЖНОСТИ ИХ АДАПТАЦИИ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА ........ 357
**Д. Мейлиева**

O'ZBEKISTON AUDITORLIK TIZIMIDA KASBDOSHLAR TOMONIDAN BAHOLASH (PEER REVIEW) TIZIMINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI ........ 361
**Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich**

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И БОЛЬШИЕ ДАННЫЕ (BIG DATA) В УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЯХ ........ 366
**Шарипов Бахтиёр Михлибаевич**

O'ZBEKISTONDA SUVGA BO'LGAN TALABNI VAQTLI QATORLAR ORQALI TAHLIL QILISH ........ 375
**Sarvar Mamasoliyev**

BOSHQARUV VA NAZORAT MAQSADLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISH ........ 383
**Isomuxamedov Akbarjon Boxodir o'g'li**

MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI ........ 389
**Salomat NOROVA**

O'ZBEKISTON TURIZM BREND BOZORINING HOZIRGI HOLATI VA TENDENSIYALARI ........ 394
**Zufarov Akmal Gulamiddinovich**

INNOVATSION IQTISODIYOTDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODOLOGIYASI ........ 404
**Qodirov Baxodirjon Tursunovich**

O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHDA YAGONA INTERAKTIV DAVLAT XIZMATLARI PORTALINING O'RNI VA AHAMIYATI ........ 408
**Dehqonov G'ayratjon Raximovich**

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION HAMDA TIJORATLASHTIRISH MASALALARI ........ 414
**Inoyatov Mardonbek Mo'min o'g'li**

OLIY IQTISODIY TA'LIM ORQALI EKO-INNOVATSIYALAR VA "YASHIL" INVESTITSIYALARNI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI: SIYOSIY VA INSTITUTSIONAL DOIRALAR ........ 418
**Xasanova Zarina Maxamadalievna**

XODIMLAR MALAKASINI OSHIRISH — ZAMON TALABI ........ 427
**Narzullaev Oybek Narzullaevich**

BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHDA JURNAL-ORDER SHAKLINING AHAMIYATI ........ 433
**Axmedjanov Abdufato**

KENDALL VA SPEARMAN TARTIBIY KORRELYATSIYA KOEFFITSIYENTLARI ASOSIDA YASHIL IQTISODIYOT INDIKATORLARINING STATISTIK O'ZARO TA'SIRINI MODELLASHTIRISH ........ 437
**Muradov Rustamjon Sobitxonovich**

ИНТЕНСИВНЫЕ И ЭКСТЕНСИВНЫЕ ОГРАНИЧЕНИЯ В РЕГУЛИРОВАНИИ СПРОСА ........ 442
**Аминджанова Румейса Батыровна, Камилова Наргиза Абдукахоровна**

ИНКЛЮЗИВНЫЙ ПОДХОД В ТУРИЗМЕ: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И УЗБЕКСКАЯ ПРАКТИКА ........ 445
**Азимова Шахло Таировна**

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XAQARO STANDARTLARIGA O'TISHNING HOLATI VA TAHLILI ........ 450
**Bayjanov Sarsengaliy Xalmuratovich**

UZUM EKSPORT QILUVCHI KOMPANIYALARDA YASHIL O'TISH JARAYONINI QO'LLAB-QUVVATLASH UCHUN EKO-MARKETING VA AYLANMA IQTISODIYOT TAMOYILLARINI INTEGRATSIYALASH ........ 454
**Usmonova Diyora Mahmud qizi**

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA XARAJATLAR SMETASI VA SHTATLAR JADVALINING TAHLILI: OPTIMALLASHTIRISH VA SAMARADORLIKNING YANGICHA USULLARI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA) ........ 461
**Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li**

INVESTITSIYALARNING KIRIB KELISHIGA TO'SQINLIK QILUVCHI MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI ........ 467
**Alimova Dilafro'z Tohir qizi**

FARMATSEVTIKA KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOBOT SHAKLLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA INVESTORLAR UCHUN AXBOROT OCHIQLIGINI TA’MINLASH ........ 470
**Turdikulova Gulshad Nurmamatovna**

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING SHAFFOFLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINING AHAMIYATI ........ 477
**Uztemirov Alisher Aktam o‘g‘li**

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT TARMOQLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA’MINLASHGA YO‘NALTIRILGAN BANDLIK TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH ........ 482
**Tursunov Bekmuxammad Omonovich**

XORIJ TAJRIBALARIDA SOLIQ BAZASINI ANIQLASH TARTIBI METODOLOGIYASINING MAVJUD METODLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI ........ 489
**Xalikchayeva Sadokat Ilxomjonovna**

IQTISODIY XAVFSIZLIKNING KONSEPTUAL ASOSLARI VA UNING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDAGI O‘RNI ........ 496
**Ramatillaev M.R.**

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI SUG‘URTALASH VA DIVERSIFIKATSIYA QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 502
**Eshboyev Shahobiddin Anorqul o‘g‘li**

TIJORAT BANKLARI O‘RTASIDAGI RAQOBATNI BAHOLASH VA KUCHAYTIRISHNING ZAMONAVIY METODOLOGIYASI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI ........ 506
**Qulmetov Mansurbek Ro‘zmatovich**

XALQARO REYTING TASHKILOTLARINING OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA TA’SIRI VA MAVJUD PLATFORMALAR ........ 515
**O‘rozboyev Xayrulla Murodboy o‘g‘li**

TALABALAR MOTIVATSIYASINING MEXANIZMLARI: LOYIHA ASOSIDAGI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDA ........ 523
**Kasimova (Mulladjanova) Nasiba Azimdjanovna**

ISH KUCHIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA NORASMIY BANDLIKNI SOYADAN CHIQARISH BO‘YICHA TAKLIFLAR ISHLAB CHIQISH ........ 531
**Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Maxkamova Shaxlo Yulchiyevna, Absamatov Baxrom Danakulovich**

KASBIY TA’LIM MAZMUNIDA TA’LIM VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASINI RAG‘BATLANTIRISH ORQALI O‘RTA BO‘G‘IN KADRLAR TAYYORLASHNING JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI ........ 538
**Tojiyev Sirojiddin Sayriddinovich**

O‘ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI BOSHQARISH TIZIMINING TURLARI VA SHAKLLARI ........ 542
**Muminova Mavjuda Sharifovna**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# O‘ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI BOSHQARISH TIZIMINING TURLARI VA SHAKLLARI

**Muminova Mavjuda Sharifovna**
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonning janubiy hududi — Surxondaryo viloyati misolida turizm infratuzilmasini rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda turistik infratuzilmani modernizatsiya qilish, investitsiya jarayonlarini faollashtirish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirish, transport-logistika tizimini takomillashtirish va mahalliy resurslardan samarali foydalanish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Maqola Surxondaryo viloyatining turistik salohiyatini ochib berish hamda iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shuvchi omillarni aniqlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: turizm infratuzilmasi, tashkiliy mexanizmlar, iqtisodiy rivojlanish, investitsiya, Surxondaryo, turistik salohiyat, boshqaruv, innovatsiya.

Abstract. This article analyzes the organizational and economic mechanisms for developing tourism infrastructure using the example of Uzbekistan’s southern region — Surkhandarya Province. The study highlights issues of modernizing tourism infrastructure, stimulating investment processes, expanding private sector participation, and introducing modern management mechanisms. It also examines ways to improve the quality of tourism services, enhance the transport and logistics system, and ensure the efficient use of local resources. The article aims to reveal the tourism potential of Surkhandarya and identify factors contributing to economic growth.

Key words: tourism infrastructure, organizational mechanisms, economic development, investment, Surkhandarya, tourism potential, management, innovation.

Аннотация. В данной статье проанализированы организационные и экономические механизмы развития туристической инфраструктуры на примере южного региона Узбекистана — Сурхандарьинской области. В исследовании освещены вопросы модернизации туристической инфраструктуры, активизации инвестиционных процессов, расширения участия частного сектора и внедрения современных механизмов управления. Кроме того, рассмотрены пути повышения качества туристических услуг, совершенствования транспортно-логистической системы и эффективного использования местных ресурсов. Статья направлена на раскрытие туристического потенциала Сурхандарьинской области и выявление факторов, способствующих экономическому росту.

Ключевые слова: туристическая инфраструктура, организационные механизмы, экономическое развитие, инвестиции, Сурхандарья, туристический потенциал, управление, инновации.

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasi milliy iqtisodiyotning diversifikatsiyalashgan tarmoqlaridan biri sifatida barqaror rivojlanishning muhim drayveri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatda turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, boshqaruv tizimini takomillashtirish va hududiy turizm salohiyatini to‘liq ishga solishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi – 2022–2026” hamda “Turizmni rivojlantirish konsepsiyasi – 2030” kabi dasturiy hujjatlar orqali tizimli asosda yo‘lga qo‘yilgan.

Turizm infratuzilmasini boshqarish tizimi nafaqat mehmonxonalar, transport, logistika, axborot-marketing tarmoqlari va servis xizmatlarini o‘z ichiga oladi, balki ularni muvofiqlashtiruvchi, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarni ham qamrab oladi. Infratuzilma elementlarining samarali boshqaruvi turistlar oqimini ko‘paytirish, xizmatlar sifatini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va mintaqaviy iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, turizm infratuzilmasini boshqarish tizimining turlari va shakllarini ilmiy

jihatdan o‘rganish sohaning strategik rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda turizm infratuzilmasi boshqaruvining davlat, xususiy hamda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosidagi turlari shakllanmoqda. Davlat boshqaruvi tizimi asosan normativ-huquqiy tartibga solish, investitsion rag‘batlar va marketing siyosati orqali yo‘naltirilsa, xususiy sektor infratuzilma obyektlarini qurish, boshqarish va servis xizmatlarini kengaytirish orqali faol ishtirok etmoqda. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari turizm loyihalarini moliyalashtirishda barqarorlik va uzoq muddatli hamkorlikni ta’minlovchi eng samarali shakllardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Shunday qilib, O‘zbekiston sharoitida turizm infratuzilmasini boshqarish tizimining turlari va shakllarini chuqur o‘rganish, ularning iqtisodiy samaradorligini baholash hamda amaliy mexanizmlarini takomillashtirish mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur shartdir. Mazkur maqolada aynan shu masalalarning ilmiy-nazariy jihatlari, ularning amaliy qo‘llanish imkoniyatlari hamda rivojlanish istiqbollari yoritiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm infratuzilmasini boshqarish nazariy asoslarini aniqlovchi tadqiqotlarda infratuzilma atamasi transport, turar joy, kommunikatsiya, axborot-marketing, xizmat ko‘rsatish va rekreatsion obyektlarni o‘z ichiga olgan tizim sifatida talqin etiladi. Buhalis 2000-yil va Buhalis 2020-yil tadqiqotlarida infratuzilmaning raqamli komponentlari, e-turizm va smart-destination konsepsiyalari boshqaruv samaradorligini oshirishda markaziy rol o‘ynashi ta’kidlanadi. Bu esa mamlakat darajasida axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish zaruratini ilgari suradi.

Tashqi adabiyotlarda infratuzilma sarmoyalarining turizm rivojiga ta’siri keng muhokama qilingan. Corboș, Bunea va Moncea 2024-yilda o‘tkazgan adabiyotlar sharhida investitsiyalarning turizm mahsuloti, xizmat sifati va uzoq muddatli raqobatbardoshlikka qo‘shgan hissasi ko‘rsatiladi. Ular investitsiyalarni faqat fizik obyektlar emas, balki inson kapitali, marketing va boshqaruv tizimlariga ham yo‘naltirish lozimligini qayd etadi.

Destinatsiya darajasida infratuzilmani boshqarish va u bilan bog‘liq siyosat muammolarini tahlil qilgan tadqiqotlar mavjud. Mandić 2018-yilda o‘tkazgan tadqiqotlarda turizm infratuzilmasi va rekreatsion obyektlar destinatsiya rivoji bosqichiga qarab moslashtirilishi kerakligi ko‘rsatiladi. Shu nuqtayi nazardan, boshqaruv mexanizmlari (mahalliy turist bordlari, jamoaviy boshqaruv, DXSh instrumentlari) muvofiqlashtirilgan yondashuvni talab etadi.

O‘zbekiston sharoitida so‘nggi yillarda o‘tkazilgan mahalliy tadqiqotlar infratuzilmaning mintaqaviy nomutanosibligi, xizmat sifati pastligi va ma’lumot qo‘llab-quvvatlash tizimlarining yetishmasligi kabi muammolarni aniqlagan. IFK Qizi 2024-yil va Yuldashev 2023-yil olib borgan tahlillarida O‘zbekiston turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish borasidagi muammolar — transport-logistika, turar joy tarmog‘i va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasidagi cheklovlar — batafsil tavsiflangan. Ushbu ishlarda davlat siyosati va strategik hujjatlar infratuzilma rivojiga yo‘l ochayotganligi, ammo amaliyotda DXSh va xususiy sektorni jalb etish mexanizmlari yanada rivojlantirilishi kerakligi ta’kidlanadi.

Mahalliy va xalqaro tadqiqotlar turizm infratuzilmasini boshqarish shakllarini taqqoslashda bir qator muhim xulosalarga olib keladi. Birinchidan, davlatning strategik rolini e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Siyosat va tartibga solish, investitsion rag‘bat va brend yaratish vazifalarini davlat samarali tarzda amalga oshirishi kerakligi ko‘p tadqiqotlarda qayd etilgan.

Ikkinchidan, xususiy sektor infratuzilma obyektlarini qurish va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tezkor va innovatsion yechimlarni taklif etadi. Ammo faqat xususiylashuv bilan cheklanib qolinsa, hududlararo tengsizlik kuchayishi mumkinligi haqida ogohlantirishlar mavjud. Shu sababli xalqaro adabiyotlarda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modellari turizm loyihalarini moliyalashtirish va boshqarishda eng maqbul mexanizm sifatida tavsiya etiladi. Bu yondashuv infratuzilmaning barqarorligi va xizmat sifatining uzoq muddatli ta’minlanishiga yordam beradi.

Uchinchidan, texnologik transformatsiya va raqamlashtirish boshqaruv shakllarini tubdan o‘zgartirmoqda. Smart-destination yondashuvlari axborot tizimlari, raqamli marketing va ma’lumot asosida qaror qabul qilishni talab qiladi. Bu esa boshqaruv strukturalarini markazsizlashtirish va ko‘p tomonlama kommunikatsiyani kuchaytirishni zarur qiladi. Buhalis 2020-yil va boshqa tadqiqotchilar texnologiyalarni boshqaruv samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida ko‘rsatadi.

Adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharoitida turizm infratuzilmasini boshqarish tizimlari va shakllarini takomillashtirish uchun quyidagi ilmiy asoslangan yo‘nalishlar dolzarbdir: infratuzilmaning mintaqaviy integratsiyasini ta’minlash, DXSh mexanizmlarini kuchaytirish, xususiy sektorni innovatsion investitsiyalarga jalb etish va raqamli infratuzilmani kengaytirish. Mahalliy tadqiqotlar hududiy tahlil va amaliy tavsiyalar bilan boyitilgan bo‘lib, ular strategik hujjatlar bilan uyg‘unlashuvi zarurligini ko‘rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi turizm infratuzilmasini boshqarish tizimlari va shakllarini oʻrganishda statistik tahlil, qiyosiy yondashuv hamda kontent tahlili usullariga asoslanadi. Maʼlumotlar Davlat statistika qoʻmitasi, Turizm qoʻmitasi va JST hisobotlaridan olingan boʻlib, ular dinamik va mintaqaviy koʻrsatkichlar asosida tahlil qilindi hamda amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Oʻzbekiston Respublikasida turizm sohasining rivojlanishi mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida eʼtirof etilmoqda. Soʻnggi yillarda qabul qilingan Prezident farmonlari va hukumat qarorlari turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish hamda hududiy salohiyatni toʻliq ishga solishga qaratilgan.

Sirdaryo viloyati geografik joylashuvi, tabiiy resurslari va transport-kommunikatsiya imkoniyatlari bilan turizm rivoji uchun muhim hududlardan biri hisoblanadi. Biroq amaliyot shuni koʻrsatmoqdaki, ushbu viloyatda turizm infratuzilmasi hali toʻliq shakllanmagan, mavjud resurslardan samarali foydalanish tizimi esa yetarlicha yoʻlga qoʻyilmagan.

Turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasi mamlakatning investitsion jozibadorligi hamda xalqaro maydondagi imidjiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Shu sababli, Sirdaryo viloyatida turizm infratuzilmasini takomillashtirish va yangi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish masalalari bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqola ana shu masalalarning ilmiy tahliliga bagʻishlangan.

Turizm infratuzilmasi — bu turizm faoliyatini amalga oshirish uchun zarur boʻlgan moddiy, tashkiliy, texnik va iqtisodiy resurslar majmuasidir. U transport tarmoqlari, mehmonxona xoʻjaligi, ovqatlanish maskanlari, dam olish zonalari, axborot markazlari hamda boshqa xizmat koʻrsatish tizimlarini oʻz ichiga oladi. Har qanday hududning turizm salohiyatini toʻliq namoyon etishda infratuzilmaning zamonaviy darajada rivojlanganligi muhim omil hisoblanadi (1-jadval) [2].

1-jadval. Turizm infratuzilmasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari

| № | Mexanizm turi | Mazmuni | Amalga oshirish yoʻllari | Kutilayotgan natija |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Investitsion mexanizm | Xususiy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish | Turizm klasterlarini yaratish, soliq imtiyozlari berish | Investitsiya hajmi oshadi, yangi ish oʻrinlari yaratiladi |
| 2 | Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) | Davlat va biznes hamkorligi asosida loyiha amalga oshirish | Infratuzilma loyihalarida DXSh tizimini keng joriy etish | Moliyaviy yuk kamayadi, xizmat sifati oshadi |
| 3 | Innovatsion mexanizm | Raqamli texnologiyalarni joriy etish | Onlayn bron tizimi, mobil ilovalar yaratish | Turistlar oqimi va qulayliklar ortadi |
| 4 | Marketing mexanizmi | Hudud brendini shakllantirish va targʻibot | “Visit Surxondaryo” kampaniyasini tashkil etish | Hudud turizm salohiyati keng targʻib qilinadi |
| 5 | Institutsional mexanizm | Mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirish | Turizm agentliklari va uyushmalarning faoliyatini muvofiqlashtirish | Turizm sohasida samarali boshqaruv tizimi shakllanadi |

Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiyotining ustuvor yoʻnalishlaridan biri — turizm sohasini rivojlantirish va uni mamlakatning barqaror iqtisodiy oʻsish manbalaridan biriga aylantirishdir. Soʻnggi yillarda turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish hamda hududiy turistik salohiyatdan samarali foydalanish davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, Surxondaryo viloyati oʻzining tabiiy, tarixiy va madaniy boyliklari bilan Oʻzbekistonning turizm xaritasida alohida oʻrin egallaydi. Ushbu hududda turizm infratuzilmasining tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish orqali yangi ish oʻrinlari yaratish, hudud iqtisodiyotini rivojlantirish va aholi farovonligini oshirish imkoniyati mavjud.

Turizm infratuzilmasi deganda, sayyohlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlaydigan transport, mehmonxona, ovqatlanish, kommunikatsiya, axborot, xavfsizlik, tibbiyot hamda madaniy xizmat koʻrsatish tizimlarining yaxlit tarmogʻi tushuniladi. Ushbu tizimning samarali ishlashi bevosita tashkiliy boshqaruv va iqtisodiy ragʻbatlantirish mexanizmlariga bogʻliqdir. Surxondaryo viloyati misolida olib borilgan tahlillar shuni koʻrsatmoqdaki, soʻnggi yillarda turizm sohasida maʼlum yutuqlar qayd etilgan boʻlsa-da, infratuzilma rivojida bir qator muammolar mavjud. Jumladan, transport-logistika tizimi yetarlicha takomillashmagan, zamonaviy mehmonxona va servis obyektlari soni cheklangan, xalqaro turizm bozori bilan integratsiya jarayoni esa sust kechmoqda.

Shu sababli, turizm infratuzilmasini rivojlantirishda samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni yaratish zarur. Tashkiliy mexanizmlar deganda turizmni boshqarish tizimi, normativ-huquqiy asoslar, davlat-xususiy sheriklik, marketing strategiyalari va kadrlar tayyorlash tizimining uygʻun faoliyati tushuniladi. Iqtisodiy mexanizmlar esa investitsiya muhitini yaxshilash, soliq imtiyozlari joriy etish, kredit va grant dasturlari orqali turizm loyihalarini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash hamda mahalliy tadbirkorlikni ragʻbatlantirish choralarini oʻz ichiga oladi.

Oʻzbekiston hukumati tomonidan soʻnggi yillarda “Turizm toʻgʻrisida”gi Qonun, Prezident Farm3onlari va qarorlari orqali bu yoʻnalishda koʻplab islohotlar amalga oshirilmoqda. Masalan, “Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish dasturi” hamda “Hududlarda turizmni rivojlantirish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar rejasi” kabi hujjatlar turizm infratuzilmasini rivojlantirishda muhim asos boʻlib xizmat qilmoqda. Surxondaryo viloyatida Termiz shahri, Boysun, Sherobod, Jarqoʻrgʻon, Denov tumanlarida joylashgan tarixiy yodgorliklar, tabiiy goʻshalar va etnografik markazlar negizida turizm obyektlari barpo etilmoqda. Shu bilan birga, “Boysun bahori” festivali singari an’anaviy tadbirlar hududning turistik imijini oshirishda muhim rol oʻynamoqda [2].

Turizm infratuzilmasini rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarida boshqaruv tizimini samarali tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Hududiy turizm boshqarmalari faoliyatini kuchaytirish, turizm klasterlarini shakllantirish, marketing markazlarini tashkil etish va turistlarga xizmat koʻrsatish markazlarini rivojlantirish orqali tizimni yanada mustahkamlash mumkin. Bundan tashqari, turizm sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish — masalan, elektron turizm platformalari, onlayn bron tizimlari va virtual gid xizmati kabi vositalardan foydalanish — zamonaviy talablar darajasida xizmat koʻrsatishni ta’minlaydi.

Iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishda investitsion muhitni yaxshilash muhim oʻrin tutadi. Turizm sohasiga xorijiy investorlarni jalb etish, ularga soliq va bojxona imtiyozlarini berish, kredit olish jarayonlarini soddalashtirish orqali yangi turistik obyektlarni barpo etish va mavjudlarini modernizatsiya qilish mumkin. Surxondaryo viloyatida bu borada “Termiz Plaza”, “Denov Turon” kabi mehmonxonalar hamda “Boysun Eco Village” singari eko-turizm maskanlari faoliyat yuritmoqda. Ushbu loyihalar hudud iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir koʻrsatmoqda [3].

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish jarayonida mahalliy aholini sohaga jalb etish ham muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Aholi turizm xizmatlarini koʻrsatish, milliy hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqish, ekologik va etno-turizm loyihalarida ishtirok etish orqali barqaror daromad manbaiga ega boʻladi. Bu esa, bir tomondan, ijtimoiy bandlikni oshiradi, ikkinchi tomondan, hududning turistik jozibasini yanada kuchaytiradi.

Shuningdek, Surxondaryo viloyatining geografik joylashuvi — Afgʻoniston bilan chegaradoshligi — transchegaraviy turizmni rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Termiz xalqaro aeroporti, chegara oʻtish punktlari va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish orqali xalqaro sayyohlik oqimini oshirish mumkin. Shu bilan birga, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, madaniy merosni asrash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalari ham e’tibordan chetda qolmasligi zarur.

Ta’kidlash joizki, turizm infratuzilmasini rivojlantirish jarayonida davlat, xususiy sektor va mahalliy aholi oʻrtasida samarali hamkorlik mexanizmini yoʻlga qoʻyish katta ahamiyatga ega. Davlat infratuzilmani yaratish va normativ asoslarni mustahkamlash bilan shugʻullansa, xususiy sektor investitsiyalar kiritish va xizmatlar sifatini oshirish orqali sohaning raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Mahalliy aholi esa oʻzining madaniy va etnografik an’analarini saqlagan holda turistik xizmatlar koʻrsatishda faol ishtirok etadi.

Surxondaryo viloyatida turizmni iqtisodiy oʻsishning muhim omiliga aylantirish uchun quyidagi yoʻnalishlarda faoliyat olib borish maqsadga muvofiq:

– transport va kommunikatsiya infratuzilmasini kengaytirish;
– mahalliy va xorijiy investorlar uchun qulay biznes muhitini yaratish;
– turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;
– marketing strategiyasini kuchaytirish va hududiy brendni targʻib qilish;
– ekologik hamda madaniy turizm tarmoqlarini rivojlantirish [4].

Turizm infratuzilmasini rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlari mukammal ishlaganda, Surxondaryo viloyatining turistik salohiyati toʻliq roʻyobga chiqadi, hudud iqtisodiyotida yangi oʻsish nuqtalari paydo boʻladi va Oʻzbekistonning xalqaro sayyohlik imiji yanada mustahkamlanadi. Shu tarzda tizimli yondashuv asosida turizm nafaqat iqtisodiy foyda, balki madaniy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi omilga ham aylanishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, Oʻzbekiston, xususan, Surxondaryo viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy oʻsishida muhim omil hisoblanadi. Tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali turizm sohasida investitsiya muhitini yaxshilash, xizmatlar sifatini oshirish hamda yangi ish oʻrinlarini yaratish imkoniyatlari kengayadi. Hududda turizmni rivojlantirish faqat davlat siyosati doirasida emas, balki xususiy sektor va mahalliy aholi ishtirokida amalga oshirilishi zarur. Surxondaryoning tabiiy, tarixiy va

madaniy salohiyatidan samarali foydalanish, ekologik hamda etnoturizm yo'nalishlarini rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sishga olib keladi. Shu bois, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, marketing strategiyalarini kuchaytirish va kadrlar tayyorlash tizimini isloh etish hududning raqobatbardoshligini oshiradi hamda xalqaro turizm bozorida O'zbekiston brendini mustahkamlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. — Toshkent, 2022. — 54 b.
2. Qodirov, M. Turizm iqtisodiyoti asoslari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. — 276 b.
3. Jo'rayev, Sh. Hududiy turizmni rivojlantirish mexanizmlari. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. — 192 b.
4. Rasulov, A. O'zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish omillari. — Termiz: TDPU, 2023. — 165 b.
5. Alieva M.T. (2024). Development of Tourism and Territory of the Republic of Karakalpakstan. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. UO'K: 338:48 (575.172)
6. Alieva M.T (2024).The Role of Agrotourism in theSustainable Development of Rural Areas in Uzbekistan. International Journal of Business Diplomacy and Economy, 2(7), 243-246.
7. Alieva, M.T, Ermekbaeva, I.P (2025). Practices and Challenges of Achieving Sustainable Tourism in Uzbekistan. American Journal of Open University Education, 2(8), 23-27.
8. Alieva, M.T (2025). Opportunities for the Development of Tourism of Historical Cities pf Uzbekistan. American Journal of Open University Education, 2(5), 31-36.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025. № 11**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz